

**IMPERATORNING MAXFIY MASLAHATCHISI SENATOR  
F.K.GIRS TOMONIDAN TURKISTONDA BOSHQARUV TIZIMINI  
TAFTISH ETILIISHINING SABABLARI**

*Rasulov B.G'.*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Rus imperatorining maxfiy maslahatchisi F.K.Girsning Turkiston o‘lkasi boshqaruv va sud tizimiga oid taftish ishlari, sabablari va oqibatlari haqida ma’lumot berilgan.

*Kalit so‘zlar: tarix, Turkiston general-gubernatorligi, ijtimoiy hayot, fon Kaufman, M.G.Chernyayev, G.A.Kolpakovskiy, taftish ishlari, sud islohatlari.*

**Аннотация**

В данной статье представлены сведения о расследовании, причинах и последствиях деятельности тайного советника российского императора Ф. К. Гирса по вопросам управления и судебной системы Туркестанского края.

**Ключевые слова:** история, Туркестанский генерал-губернатор, общественная жизнь, Фон Кауфман, М.Г.Черняев Г.А.Колпаковский, ревизионная работа, судебные реформы.

**Abstract**

This article provides information about the investigations, reasons and consequences of the secret adviser of the Russian emperor, F.K. Girs, regarding the administration and judicial system of the Turkestan region.

**Keywords:** history, Governor General of Turkestan, social life, von Kaufman, M.G. Chernyayev, G.A. Kolpakovskiy, judicial reforms.

Jonajon Vatanimiz istiqlolga erishgach, xalqimizning o‘zligini anglashga, tarixiy xotirasini hamda azaliy milliy qadriyatlarini tiklash va uni kelajak avlodlar ongiga singdirishga, urf-odat va an’analarni teran o‘rganishga keng imkoniyatlar yaratildi. Mustabid tuzum davrida zo‘rma-zo‘rakilik bilan soxtalashtirilgan tariximiz sahifalarini oqilona yoritish imkon bo‘lmadi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tarixga munosabat haqida gapirar ekan, shunday deydi: “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak, aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”[1]. Mamlakatimiz tarixini haqqoni yoritishda nafaqat millatimiz tarixchilarining asarlari, balki boshqa millat vakillarining yurtimiz tarixi, ijtimoiy-siyosiy va boshqaruv tizimi, ma’muriy-hududiy bo‘linishi, xalqimizning urf-odatlarini yoritishga bag‘ishlangan ilmiy, publististik yo‘nalishdagi asarlari, hisobotlari ham muhim manba sifatida xizmat

qiladi. Xuddi shunday manbalardan biri XIX asrning 80-yillari boshlarida Turkiston general-gubernatorligi boshqaruv tizimini taftish qilgan imperatorning maxfiy maslahatchisi F.K.Girsning hisobotlaridir. Unda 1867-1881-yillarda Turkiston general-gubernatori bo‘lgan Fon Kaufman davridagi boshqaruv tizimiga doir ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, bu Vatanimiz tarixining o‘sha davrdagi siyosiy ahvolini tasavvur qilish imkonini beradi.

Hozirgi kunga qadar ko‘plab tadqiqotchilarining, jumladan, N.A.Abdurahmonova va F.R.Ergashovlarning “Turkistonda chor mustamlaka tizimi” nomli risolasida rus tarixchi P.G.Galuzo tadqiqotlariga tayangan holda, F.K.Girs tomonidan olib borilgan taftish ishlari va uning natijasida ma’muriy tizimda yuz bergen o‘zgarishlar tahlil qilinadi [2.15]. F.K.Girs reviziysi materiallari u yoki bu masala yuzasidan tadqiq qilingan bo‘lsa-da, lekin chuqur o‘rganilmagan. Bu esa mavzuni atroflicha mukammal o‘rganishni taqoza etadi.

F.K.Girsning Turkiston general-gubernatori Fon Kaufman davridagi boshqaruv tizimini taftish qilishi ko‘proq siyosiy vaziyat bilan bo‘liq edi. 1881-yil fevral oyida liberallarga xayrixoh bo‘lgan imperator Aleksandr II o‘ldirildi va 36 yoshli konservativ tuzum tarafdoi Aleksandr III taxtga o‘tirdi. Natijada barcha sohalarda kadrlar o‘zgarishi boshlandi, bu provardida Rossiya hukumatidagi kayfiyatning yana-da konservativlashishiga sabab bo‘ldi. [2.47]

Imperator vafotidan bir necha kun o‘tgach, 1881-yil mart oyida Kaufman og‘ir xastalikka chalindi. Semirenn viloyatining boshlig‘i general-leytenant G.A.Kolpakovskiy vaqtinchalik Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi. Turkiston hududining bir qismi G.A.Kolpakovskiy uchun maxsus tashkil etilgan alohida cho‘l general-gubernatorligiga ajratildi (faqat 1898-yilda u yana Turkiston tarkibiga kirdi). [2.47]

1882-yilda esa Turkiston general-gubernatorligiga M.G.Chernyayev tayinlandi. Bundan oldin 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganida Chernyayev Sankt-Peterburgdagi tarafдорлари yordamida o‘zning nomzodini ilgari surishga urinadi, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shundan so‘ng o‘zini, adolatsiz ravishda chetlab o‘tilgan deb hisoblagan Chernyayev Turkistonning “Birinchi tashkilotchisi” shon-sharafini undan tortib olgan Kaufman siyosatiga qarshi chiqa boshladi va “Rus dunyosi” gazetasida uning Turkistonda olib borayotgan siyosatini doimiy ravishda tanqid qiladi. 1875-yilda Kaufman hatto Aleksandr II ga “Chernyayev ta’qibini” tugatish iltimosi bilan murojaat qilishga majbur bo‘lgan [3.955].

Chernyayev nafaqat Kaufman, balki imperator Aleksandr II siyosatiga ham qarshi edi. Aleksandr II vafotidan so‘ng taxtga o‘tirgan shahzoda Aleksandr III bilan

yaxshi munosabatda bo‘ladi va shu tariqa Kaufmandan so‘ng general-gubernator etib tayinlanishga erishadi.

Chernyayev 1882-yil aprel oyida Rossiya imperatoriga nota yuborib, o‘zidan oldin turkiston geniral gubernatori bo‘lgan fon Kaufman davridagi boshqaruv siyosatini qoralashga erishish uchun taftish o‘tkazishga kirishdi. Buning sabablaridan biri Kaufman davridagi boshqaruv tizimini taftish qilish va olib borilgan islohatlarni o‘rganib chiqish edi. Chernyayev buni “ma’muriyat o‘z tarkibida ham, harakat yo‘nalishida ham jiddiy o‘zgarishlarni talab qiladi”[5.14] deb baholaydi. Ammo R.Yu.Pochekayevning so‘zlariga ko‘ra, Chernyayevning reviziyanı tayyorlashda ham faol ishtirok etishi shaxsiy adovati bilan bog‘liq edi. 1870-1906-yillarda Turkiston o‘lkasida xizmatda bo‘lgan G.P.Fedorov o‘z asarida shunday ma’lumot beradi:[6] ma’lumot berishicha, Chernyayev kelganidan ko‘p o‘tmay, u Kaufmanning ashaddiy dushmani ekanligi haqida mish-mishlar tarqala boshladi. “Avvaliga bu faqat qorong‘u mish-mishlar edi, biz bunga shubha bilan qaradik, chunki biz bunday dushmanlik uchun hech qanday sabab ko‘rmadik, lekin keyin Chernyayevning birinchi rasmiy qadamlaridan boshlab, biz mish-mishlar juda yaxshi asosga ega ekanligiga ishonch hosil qildik. Hammamizni hayratga solgan birinchi narsa Sankt-Peterburgdan taftish komissiyasi tayinlanishi bo‘ldi, Chernyayev Sankt-Peterburgni viloyat ma’muriyatida to‘liq tartibsizlik hukm surayotganiga, mansabdor shaxslar o‘zlariga har xil suiste’molliklarga yo‘l qo‘yayotganiga ishontirishga muvaffaq bo‘ldi. Bu Kaufman xotirasiga noloyiq haqorat edi, hech narsa sabab bo‘lmagan va faqat Chernyayevning shaxsiy dushmanligi asosidagi haqorat edi. Uning boshiga xususiy maslahatchi F.K.Girs keldi va o‘zi bilan turli vazirliklardan uchta xodimni olib keldi. Qayta ko‘rib chiqishning dastlabki qadamlari Girs har qanday holatda ham tartibsizlik va suiste’mollik izlarini topishni xohlaganligini ko‘rsatdi”[6]. Bundan ma’lum bo‘ladiki, Chernyayevning o‘ziga ishonib topshirilgan hududni tekshirishdan shaxsiy manfaatdorligi bo‘lgan va buni inkor etib bo‘lmaydi, ammo tan olish kerakki, ma’muriy boshqaruv tizimini tekshirish ijtimoiy-siyosiy muammolarning haqiqiy ildizlarini keltirib chiqardi va Turkistonning sud-huquq tizimlarini isloh qilish imkonini berdi. Chernyayevning taklifiga binoan qayta ko‘rib chiqish uchun komissiya Turkiston o‘lkasiga yuboriladi va yuqorida ta’kidlaganimizdek, unga imperatorning maxfiy maslahatchi F.K.Girs boshchilik qildi. O‘tkazilishi lozim bo‘lgan taftish sababini Chernyayev mintaqaning kelajakdagi moliyaviy xarajatlaridan xavotirda ekanligi bilan izohlaydi. O‘tkazilishi kerak bo‘lgan reviziya samaradorligini ta’minalashning zarur sharti sifatida, komissiyasining tarkibi mahalliy ma’muriyat a’zosi bo‘lmagan shaxslardan iborat bo‘lishi kerakligini Chernyayev alohida ta’kidlaydi. Bunda, deydi general-gubernator, qayta ko‘rib

chiqish boshqaruvning mavjud kamchiliklarini ko'rsatib beradi va "Viloyat boshqaruvi to'g'risidagi yangi nizomni tuzishda uning haqiqiy ehtiyoj va talablaridan kelib chiqib ishlab chiqishni boshlash" imkonini beradi [8, 14].

Shuningdek, M.G.Chernyayev taftish davomida viloyat sud-huquq tizimining holatiga alohida e'tibor qaratilishi lozimligini ta'kidlaydi. General-gubernator nafaqat viloyatda mavjud sud-huquq tizimi muammolarini, balki "hududda sud tizimini o'zgartirish bo'yicha taqdim etilgan loyihaning qoniqarsizligi" haqida ham gapirdi. Turkiston o'lkasidagi sud tizimining o'ta achinarli ahvoli, davlat boshqaruvi tizimidagi nuqsonlar general-gubernator tomonidan sobiq gubernator fon Kaufmanning kamchiligi sifatida baholangan.

Taftish maqsadini F.K.Girs shunday izohlaydi: "Turkiston general-gubernatorining 1867-yil 11-iyulda Oliy qo'mondonlik tomonidan kuchga kirgan farmoyishlarini ko'rib chiqish, agar mavjud bo'lsa, huquqbuzarlarni jinoiy javobgarlikka tortish masalasi taftish a'zolariga vazifa qilb yuklatildi. F.K.Girsning ta'kidlashicha, Turkiston general-gubernatorligini boshqarish to'g'risidagi yangi nizom ishlab chiqilishi uchun loyihaning yakuniy ma'lumotlarini taqdim etishi kerak edi".[7.1]

F.K.Girsreveziyaning qonuniy ekanligini o'zining hisobotida shunday izohlaydi: "Mening huquq va majburiyatlarim Oliy Kengash tomonidan 1882-yil 20-oktyabrda tasdiqlangan maxsus ko'rsatmasi bilan belgilangan".[7.1]

Menga ishonib topshirilgan asosiy vazifa bir nechtadan iborat edi: Hududning ahvoli bilan yaqindan tanishish, muassasalarning ish yuritish ishlarini o'rganish, murojaat va shikoyatlarni ko'rib chiqish, aholining ehtiyojlari bo'yicha ko'plab shaxsiy so'rovlарini ko'zdan kechirish maqsadida shaxsan o'zim yoki ko'mak berish topshirilgan mutasaddilar orqali Turkiston general-gubernatorligining barcha uyezdлarida so'rov o'tkazdim. Menga ishonib topshirilgan topshiriqning asosiy vazifasi suiiste'mollarni jinoiy javobgarlikka tortish emas, balki imperiyaning qolgan qismlarida hokimiyatning umumiyligi mohiyatini va uning o'rnatilgan va qonuniylashtirilgan tartib-qoidalaridan chetga chiqishlarini oydinlashtirish edi. Qayta ishslashning ushbu yo'nalishi menga boshqa topshiriqni muvaffaqiyatli bajarish uchun yagona mumkin bo'lgan yo'nalish bo'lib tuyuldi. Oliy hokimiyat tomonidan menga ishonib topshirilgan vazifa asosidagi faktlar mintaqani kelgusida tashkil etish uchun yangi nizom loyihasini ishlab chiqish kerak edi.[7.2]

Xullosa qilib aytganda, F.K.Girs reveziyasi o'lkadagi siyosiy, ijtimoiy vaziyatni ko'rsatib berdi va sud-huquq tizimiga oid kamchiliklarni bartaraf etish imkonini berdi. Uning ma'lumotlari asosida yangi nizom ishlab chiqildi. Bu esa mintaqaning sud va ma'muriy tizimida islohotlar o'tkazilishiga sabab bo'ldi.

**ADABIYOTLAR**

1. Мирзиёев Ш. “Бугун бутун мамлакатда уйғониш даври” // “Халқ сүзи”, 2021 йил 21 январь.
2. Abdurahimova N.A., Ergashev F.R. Turkistonda chor mustamlaka tizimi.– Т.: Akademiya, 2002. – В. 236.
3. Абашин С. Быть или не быть общине в Туркестане: споры в русской администрации в 1860-1880 годах // Вестник Евразии. 2001. № 4.
4. Юдин М.Л. Памяти М.Г. Черняева // Исторический вестник. Год тридцать пятый. СХХХVII. – Т., Сентябрь 1914.– С. 955.
5. Лысенко Ю.А., Анисимова И.В. и др. Традиционное казахское общество в национальной политике Российской империи: концептуальные основы и механизмы реализации (XVIII - начало XX в.). Барнаул, 2014.
6. Анисимова И.В., Омурова Ж.О. Вклад туркестанского генерал-губернатора М.Г.Черняева...в подготовку сенаторской ревизии центральноазиатских окраин Российской империи (начало 80-х гг. XIX в.) // Известия АлтГУ. Исторические науки и археология. 2019. №6 (110). – С.14.
7. Гирс Ф.К. Отчет ревизирующего по высочайшему повелению Туркестанский край тайного советника Ф.Гирса. / Ф.К.Гирс. – СПб.: Б.м., 1883. – 464 с.
8. Федоров Г.П. Моя служба в Туркестанском крае. (1870-1910 года) // Исторический вестник. №11. 1913.

---

**Rasulov Baxtiyor G‘ulmovich**

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi

[rasulovbaxtiyor219@gmail.com](mailto:rasulovbaxtiyor219@gmail.com)